

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 373 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIYA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOIYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASSTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSiya FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochirdiyevich, Sharifi Abdul Fatah</i>	
MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR	245
<i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	251
<i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	257
<i>Karimov Shohruh Boydulla o'g'li</i>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH	262
<i>Astanov Zafar Murodillayevich</i>	
QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODEL	266
<i>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL VA INVESTITSION MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	272
<i>Norboyev Sarvar Azodovich</i>	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	277
<i>Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li</i>	
ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH	283
<i>B. Beknazarov</i>	



SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIYASI	288
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ	294
Мегноров Алмардон Абдирахмонович	
RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY	302
Nigmatova Malika	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	307
Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI	311
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ	316
Киличева Ф.Б.	
MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	320
Kushmanova Mahbuba	
GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	324
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich	
DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	329
Sharapov Farrux Shomuratovich	
КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ АЛМГСІ ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ	333
Ибрахимов Фаррухжон Фарходович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	336
G'oziyeva Mokhira Rustamovna	
KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	345
Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'liqin Alimardanovich	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	352
To'g'onov Ibroximxo'ja	
TMK KORXONASI SHAROITIDA R6AM5 MARKALI TEZKESAR PO'LATDAN TAYYORLANGAN PARMA UCHUN TERMIK ISHLOV BERISH REJIMI	358
Djalalova Sevara Toxtamuratovna	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	362
Шоев Алим Халмуратович	
TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	367
Umirzoqova Aziza Olim qizi	



TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI

Umirzoqova Aziza Olim qizi

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2020-2024 yillarda O'zsanoatqurilishbank va Ipotekabankda olib borilgan transformatsiya va xususiylashtirish siyosatining bank faoliyati samaradorligiga, xususan aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichiga ta'siri tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida davlat ulushi dinamikasidagi o'zgarishlar va ularning ROA ga ta'siri solishtirma grafiklar asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada xususiylashtirish orqali bank faoliyatini yanada samarali tashkil etish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy xulosalar hamda takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ROA, transformatsiya, xususiylashtirish, davlat ulushi, bank samaradorligi, tijorat banklari, O'zsanoatqurilishbank, Ipotekabank.

Abstract. This article analyzes the impact of transformation and privatization policies implemented in Uz sanoatqurilishbank and Ipotekabank during 2020-2024 on bank performance efficiency, particularly on return on assets (ROA). The analysis examines changes in the dynamics of state ownership and their effect on ROA using comparative graphs. The article provides practical conclusions and recommendations aimed at improving bank efficiency and ensuring financial stability through privatization.

Keywords: ROA, transformation, privatization, state ownership, bank efficiency, commercial banks, Uz sanoatqurilishbank, Ipotekabank.

Аннотация. В статье анализируется влияние политики трансформации и приватизации, проводимой в 2020-2024 годах в Узсаноатқурилишбанке и Ипотекабанке, на эффективность деятельности банков, в частности на показатель рентабельности активов (ROA). В процессе анализа на основе сравнительных графиков рассматривается динамика изменения доли государства и ее влияние на ROA. В статье представлены практические выводы и рекомендации по повышению эффективности банковской деятельности и обеспечению финансовой устойчивости за счет приватизации.

Ключевые слова: ROA, трансформация, приватизация, доля государства, эффективность банков, коммерческие банки, Узсаноатқурилишбанк, Ипотекабанк.

KIRISH

O'zbekiston bank tizimi so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar va institutsional transformatsiyalar davrini boshdan kechirmoqda. Tarixan, tijorat banklarining asosiy qismi davlat ishtirokida faoliyat yuritib, ular orqali iqtisodiyotning strategik tarmoqlari moliyalashtirib kelingan. Shu bilan birga, davlat ishtirokidagi banklarda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash zarurati mavjud bo'lib kelgan. Xususan, bank faoliyati samaradorligini baholovchi asosiy moliyaviy indikatorlardan biri bo'lgan aktivlar rentabelligi (ROA) ayrim hollarda yetarli darajada yuqori bo'lmagan. Shu sababli, O'zbekistonda bank sektorini modernizatsiya qilish, jumladan, davlat ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish va banklarni xususiylashtirish orqali ularning rentabelligini oshirish masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylangan.

2020-yilda qabul qilingan Prezident farmoniga muvofiq, 2025-yilgacha kamida olti yirik davlat bankini transformatsiya qilish va ularning aksiyalarini xususiy sektor vakillariga taklif etish belgilab berilgan. Ushbu strategik maqsad banklarning operatsion samaradorligini oshirish, bozor tamoyillarini mustahkamlash va davlat ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirish orqali bank sektorining raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan.

Davlat banklarini xususiylashtirish dasturi doirasida O'zsanoatqurilishbank va Ipotekabank muhim tajriba maydoniga aylandi. O'zsanoatqurilishbank sanoat tarmoqlarini moliyalashtirishga ixtisoslashgan bo'lib, transformatsiya dasturini xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda izchil amalga oshirib kelmoqda. Ipotekabank esa ipoteka kreditlari bozorida yetakchi o'ringa ega bo'lib, 2023-yilda xorijiy strategik investor – Vengriyaning OTP Banki – tomonidan to'liq xususiylashtirildi. Mazkur banklar 2020-2024 yillar davomida pandemiya sharoitlari, iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar, kredit siyosatining takomillashtirilishi va institutsional islohotlar jarayonlarini bosqichma-bosqich boshdan kechirdi.

Ushbu maqolada aynan ushbu ikki bank misolida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlarining bank faoliyati samaradorligiga, xususan aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davlat ulushi qisqarishi sharoitida ROA darajasining qanday o'zgarishini hamda xususiylashtirish sektor ishtirokining bank rentabelligini oshirishdagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Ushbu tahlil O'zbekiston bank sektorida amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy samaradorligini baholashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro va mahalliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat banklari moliyaviy samaradorlik jihatidan xususiylashtirish banklarga nisbatan pastroq ko'rsatkichlarga ega bo'lishi mumkin. La Porta va boshqalar (2002) davlatga tegishli banklarda yuqori operatsion xarajatlar, past foiz marjasi va bozor intizomining yetarli darajada rivojlanmaganligi ROA ko'rsatkichiga ta'sir qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Jahon banki hisobotlariga ko'ra, 2015-2020 yillarda O'zbekistondagi davlat banklarining o'rtacha ROAA darajasi xususiylashtirish banklaridan 2-3 baravar past bo'lgan.

Davlat banklarida "ijtimoiy funksiyalar" va siyosiy qarorlar asosida ajratilgan imtiyozli kreditlar, shuningdek, risk-menejment tizimining rivojlanish darajasi ROA ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida e'tiborga olinadi. Masalan, Ipotekabank transformatsiyasi davomida xorijiy investor (OTP Bank) tomonidan AQR (Asset Quality Review) asosida kredit portfeli qayta baholandi va 2023-yilda bankning yashirin muammoli kreditlari aniqlangan. Bu jarayon ROA'ning vaqtincha pasayishiga olib kelgan bo'lsa-da, 2024-yilda boshqaruvni takomillashtirish natijasida foyda qayd etildi.

Mahalliy tadqiqotlar, jumladan Berlin Iqtisodiyot maktabi ekspertlarining xulosalariga ko'ra, xususiylashtirish sur'ati sekin kechmoqda. Rejada belgilangan olti bankdan faqat Ipotekabank va Asia Alliance Bank to'liq xususiylashtirish qo'lga o'tdi. Shu bilan birga, Ipotekabank misolida xususiylashtirishdan so'ng xalqaro kapital, texnik yordam va samarali boshqaruv orqali ROA ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoniyati tasdiqlandi.

Fitch Ratings tahliliga ko'ra, transformatsiya jarayonida xalqaro standartlarga moslashish qisqa muddatda moliyaviy bosimlar, shu jumladan ROA pasayishiga olib kelishi mumkin. Biroq, uzoq muddatda bu jarayon bank faoliyatining barqaror va samarali bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bois, davlat banklarini xususiylashtirish jarayonida ROA ko'rsatkichini nazorat ostida tutish va transformatsiyani daromadli modelga aylantirish muhim shart hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kvazi-eksperimental solishtirma tahlil yondashuvi qo'llanildi. Ya'ni, o'zaro o'xshash ikki yirik tijorat banki – O'zsanoatqurilishbank (SQB) va Ipotekabank – faoliyatining 2020-2024 yillar davomidagi samaradorlik dinamikasi, xususan ROA (Return on Assets) ko'rsatkichi asosida solishtirildi. Tanlangan vaqt oralig'i 2020-2024 yillar O'zbekiston bank tizimidagi chuqur islohotlar, pandemiya ta'siri va xususiylashtirish bosqichlarining kesishgan davrini qamrab oladi; bu omillar banklarning rentabellikka bo'lgan natijaviy ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotda asosiy o'zgaruvchi sifatida banklar ustav kapitalidagi davlat ulushidagi o'zgarishlar olinadi. Ipotekabank 2023-yilda xususiylashtirilib, davlat ulushi taxminan 100% dan 20% gacha kamaygan bo'lsa, O'zsanoatqurilishbankda shu davrda davlat egaligi saqlanib qolgan. Shu sababli, ushbu banklar samaradorlik ko'rsatkichlaridagi farqlarni davlat ishtirokidagi transformatsiya bosqichlari bilan bog'lash imkoniyati mavjud.

TAHLIL VA NATIJALAR


Ma'lumotlar manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistikasi, banklarning yillik hisobotlari hamda Fitch va S&P kabi xalqaro reyting-agentliklari sharhlari asos bo'ldi. ROA ko'rsatkichi – bankning sof yillik foydasining o'rtacha aktivlarga nisbati – moliyaviy samaradorlikni ifodalovchi asosiy mezon sifatida qabul qilindi.

Tahlilda deskriptiv statistik yondashuv va grafik vizualizatsiya metodlari ishlatildi: har bir bank uchun yillik ROA qiymatlari yig'ilib, ularning o'zgarish trayektoriyasi aniqlanib, o'zaro solishtirildi. Ipotekabankda xususiylashtirishdan so'ng (2023) kuzatilgan ROA'dagi vaqtincha pasayish va keyinchalik tiklanish tendensiyasi, shuningdek, SQBda barqaror, ammo sekin o'suvchi ROA ko'rsatkichlari grafiklar asosida aniq tasvirlandi.



Ushbu ikki bankning solishtirilishi ichki nazorat (control group) funksiyasini bajaradi, chunki ular o'xshash makroiqtisodiy sharoitda faoliyat yuritgan; farqli jihati esa transformatsiya darajasi va egalik shakli hisoblanadi. Holat tadqiqi (case study) asosida olib borilgan bu yondashuv transformatsiya va xususiylashtirishning moliyaviy samaradorlik (ROA) ko'rsatkichiga ta'sirini real bank amaliyotida tahlil qilish imkonini beradi.

Gipoteza shuki, davlat ulushi qisqargan banklarda qisqa muddatli moliyaviy bosimlar bo'lishi mumkin, biroq uzoq muddatda ROA ko'rsatkichining oshishi kuzatiladi. Chunki transformatsiya jarayoni bank faoliyatida bozor tamoyillarini kuchaytiradi va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.



1-rasm. O'zsanoatqurilishbank va Ipotekabankda aktivlar rentabelligi (ROA)ning 2020-2024-yillardagi dinamikasi¹

Ushbu grafik banklarning foydalilik darajasidagi o'zgarishlarini solishtirish imkonini beradi. 2020-yilda har ikki bankning ROA ko'rsatkichi taxminan 1% atrofida bo'lgan (O'zsanoatqurilishbank ~1,1%, Ipotekabank ~0,9%). Shu davrda pandemiya boshlangan bo'lsa-da, davlat banklariga ko'rsatilgan qo'llab-quvvatlash va Markaziy bankning yengil pul-kredit siyosati hisobiga banklar ozmi-ko'pmi foyda ko'rsatishga erishgan.

2021-yilda ikki bankning yo'nalishlari farqlana boshladi: Ipotekabankda ROA sezilarli oshib, ~1,5% ga yetgan bo'lsa, O'zsanoatqurilishbankda biroz tushib, ~0,8% ni tashkil etdi. Ipotekabankdagi o'sishga bir necha omillar sabab bo'lgan: birinchidan, bank pandemiya davrida ortiqcha zaxira ajratgan bo'lsa, iqtisodiy faollik tiklanishi bilan zaxiralarni qisqartirgan, natijada sof foyda oshgan; ikkinchidan, mazkur davrda Ipotekabank xalqaro moliya institutlari (IFC, ADB va h.k.)dan taxminan 200 mln. dollar miqdorida arzon resurs jalb qilgan va bu mablag'larni yuqori marjali kreditlarga yo'naltirganligi rentabellikni oshirgan.

O'zsanoatqurilishbankda esa 2021-yilda pandemiya ta'siri bilan kreditlar bo'yicha kechiktirilgan to'lovlar va zaxira ajratish zarurati tufayli foyda pastroq bo'lgan; ayni paytda bank kapitali davlat tomonidan qo'shimcha kiritilgan bo'lishi ehtimoli mavjud. Natijada ROA biroz pasaygan.

Grafikdan ko'rinayotgan eng dramatik o'zgarish Ipotekabankning 2023-yilgi ko'rsatkichida seziladi: ROA manfiy (~-0,5%) bo'lib, bank umumiy zarar ko'rsatgan. Bu holat xususiylashtirish va transformatsiya jarayonining qisqa muddatli xarajatlari bilan bog'liq edi. OTP Bank nazoratni qo'lga olgach, 2023-yilda Ipotekabankdagi muammoli kreditlar aniqlangan va ularga zaxiralar keskin oshirilgan - kredit zararlariga ajratilgan zaxira 2022-yildagi ~69 mln. AQSh dollaridan 2023-yilda ~338 mln. dollarga yetgan.

Natijada 2023-yil yakunida Ipotekabank moliyaviy natijasi sof zarar (~128 mln. AQSh dollari, IFRS hisobotiga ko'ra) ko'rinishida namoyon bo'lgan. Bu holat transformatsiya jarayonining dastlabki bosqichida kutilgan edi va muammoli aktivlarni tozalash samarasi sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, O'zsanoatqurilishbank 2023-yilda barqaror foyda ko'rsatishda davom etgan; uning ROA ko'rsatkichi ~1,2% ga yetib, o'tgan yillarga nisbatan yaxshilangan. Bu bankda ham transformatsiya dasturi doirasida samaradorlikni oshirish choralari, xususan operatsion xarajatlarni qisqartirish va marjani oshirish ishlari amalga oshirilgan.

2024-yilda Ipotekabankning "o'sish trayektoriyasiga" qaytgani ko'rildi – grafikda ROA ~1,5% darajaga tiklangani aks etgan. Bu shuni anglatadiki, 2023-yildagi bir martalik yo'qotishlardan so'ng bank qayta foydali faoliyatga o'tgan. 2024-yilda OTP Bank bankga qo'shimcha kapital kiritgan va samarali boshqaruv qarorlarini joriy etgan natijasida bankning operatsion daromadlari sezilarli oshgan va kreditlash hajmi kengaygan. Shu bilan

¹ muallif hisob-kitobi, Ipotekabank (OTP Group) va O'zsanoatqurilishbankning 2020-2024-yillardagi yillik moliyaviy natijalari, OTP Group investor taqdimotlari hamda Markaziy bank statistikasi asosida tayyorlangan.

2024-yil yakunida Ipotekabank sof foydasi ~102 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, bank kapital rentabelligi (ROE) ~15-16% atrofida qayd etildi. Bu esa aktivlar rentabelligida ~1,5-2% kabi sog'lom ko'rsatkichni ta'minlagan.

O'zsanoatqurilishbankda 2024-yilda ROA ~1,3% ga yetgan bo'lib, bank o'z foydaliligini biroz yaxshilagan. Shu tarzda, grafik tahlil Ipotekabankdagi transformatsiya jarayonining moliyaviy natijalari dastlab salbiy bo'lsa-da (2023-yilda zarar), keyinchalik ijobiy tomonga keskin o'zgarishini vizual tarzda namoyish qiladi. O'zsanoatqurilishbankda esa o'zgarishlar silliq va sustroq bo'lib, davlat egaligi saqlangan holda bank ko'rsatkichlari asta-sekin yaxshilangan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlari banklarning rentabelligi, ya'ni ROA ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir qiladi. Ipotekabank misolida, davlat ulushi qisqarishi dastlab qisqa muddatli moliyaviy yo'qotishlarga olib kelgan bo'lsa-da, bu davr muammoli aktivlarni aniqlash, ularni balansdan chiqarish va yangi mulkdor tomonidan samarali risk-nazorat tizimlarini joriy etish bilan kechdi. Natijada 2024-yilga kelib bank faoliyati foydali bosqichga o'tgan va ROA 1,5% darajaga yetgan, bu transformatsiyaning o'rta muddatli ijobiy samarasini ko'rsatadi.

O'zsanoatqurilishbankda esa davlat ulushi saqlangan bo'lsa-da, transformatsiya dasturlari (masalan, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik, raqamli texnologiyalar joriy etilishi) tufayli bankning rentabellik ko'rsatkichi yildan-yilga asta-sekin o'sdi: 2020-yilda ROA ~1,1% bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda ~1,3% ga yetgan. Biroq, o'sish sur'ati Ipotekabanknikiga nisbatan sust bo'lib, bu davlat egaligidagi banklarda bozor tamoyillari cheklanganligi sababli yuqori rentabellikka erishish biroz sekinroq ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ROA dinamikasiga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Davlat banklarining rentabellik ko'rsatkichlari transformatsiya boshlangunga qadar nisbatan barqaror, biroq past bo'lgan.
- Transformatsiya va xususiylashtirish qisqa muddatda ROA'ni pasaytirsada, bu muammoli aktivlarni tozalash bilan bog'liq bo'lib, uzoq muddatda yuqori rentabellikka zamin yaratgan.
- Bozor tamoyillariga asoslangan boshqaruv (xususiylashtirishdan so'ng) bank rentabelligining keskin oshishiga olib keladi; xususan, Ipotekabankda bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib davlat banklarining o'rtacha darajasidan ancha yuqori bo'lgan.

Shunday qilib, transformatsiya va xususiylashtirish omillari banklarning rentabelligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi va bu O'zbekiston bank tizimining barqarorligi va samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston tijorat banklari misolida o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlari bank rentabelligi – ROA ko'rsatkichi orqali aniq aks etadi. Davlat ulushi yuqori bo'lgan banklarda (O'zsanoatqurilishbank misolida) ROA nisbatan past va o'sish sur'ati sekin bo'lgani holda, xususiylashtirilgan bankda (Ipotekabank) bu ko'rsatkich qisqa muddatli pasayishdan so'ng sezilarli oshgan. Bu esa shuni anglatadiki, bozor tamoyillari asosida faoliyat yuritish ROA'ni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Asosiy xulosalardan biri shuki, xususiylashtirish bank rentabelligini sezilarli oshiradi. Ipotekabank misolida bu yaqqol namoyon bo'ldi: 2023-yildagi moliyaviy zarar (ROA ~ -0,5%) qisqa muddatli xarajat bo'lib, 2024-yilda ROA 1,5% dan oshib, bank qaytadan foydali bosqichga o'tdi. Aksincha, O'zsanoatqurilishbankda ichki islohotlar natijasida ROA ijobiy o'zgargan bo'lsa-da, bu o'sish tezligi ancha sekin bo'lib, 2020-2024 yillarda ~1,1% dan ~1,3% gacha yetdi.

Tavsiya etiladigan asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

1. Xususiylashtirishga tayyorgarlik va balans tozaligi: ROA ko'rsatkichining qisqa muddatli pasayishini minimallashtirish uchun xususiylashtirishdan oldin banklarning balansidagi muammoli aktivlar oldindan chiqarib tashlanishi lozim. Bu investorlar kelgach, moliyaviy zararni chuqurlashtirmaslikka xizmat qiladi va ROA tezroq tiklanishiga zamin yaratadi.
2. Korporativ boshqaruvni isloh qilish: ROA'ni barqaror saqlash uchun mustaqil kuzatuv kengashi, ichki audit tizimi va xalqaro standartdagi boshqaruv mexanizmlari joriy qilinishi kerak. Bunday chora-tadbirlar bank foydaliligini doimiy ravishda yuqori darajada saqlashga yordam beradi.
3. Xorijiy strategik investorlardan foydalanish: OTP Bankning Ipotekabankdagi tajribasi shuni ko'rsatdiki, tajribali investor nafaqat kapital, balki samaradorlikni oshiruvchi texnologiyalar va boshqaruv tamoyillarini ham olib keladi. Bu esa ROA'ni barqaror yuqori darajaga olib chiqadi.
4. Davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish: Davlat egaligida qolayotgan banklar uchun bozor intizomini mustahkamlash, subsidiyalik kreditlar va zararlarni qoplab berish kabi amaliyotlardan voz kechish zarur. Aks holda, ROA past darajada qolishi mumkin.
5. Monitoring va baholash tizimini joriy qilish: Transformatsiyadan o'tayotgan har bir bankda ROA kabi samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha doimiy monitoring olib borilishi, ularning dinamikasi asosida siyosiy va boshqaruv qarorlarini qabul qilish muhimdir.



Xulosa qilib aytganda, ROA orqali baholangan rentabellik darajasi O'zbekiston bank sektorida xususiylashtirish va transformatsiya islohotlarining samarasini o'lchash uchun eng muhim mezonlardan biridir. Ipotekabank misolida bu ko'rsatkichning tezkor va ijobiy o'zgarishi – xususiy mulk va samarali boshqaruv bank rentabelligini sezilarli oshirishini isbotlaydi. Shu sababli, boshqa yirik banklarni ham xususiylashtirish jarayonida ROA'ni markaziy ko'rsatkich sifatida e'tiborga olish va tegishli siyosat choralari ko'rish muhimdir. Bu esa uzoq muddatda moliyaviy vositachilikning sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jahon banki. (2022). *Financial Sector Reform Project: O'zbekistonda bank tizimining holati va islohotlari tahlili*.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2022-2023). *Yillik hisobotlar va statistik axborotnomalar: banklar kesimida muammoli kreditlar to'g'risida ma'lumotlar*.
3. Fitch Ratings & S&P Global. (2023-2025). *O'zbekiston bank sektorini rivojlantirish bo'yicha reyting agentliklari sharhlari: banklarning xususiylashtirish jarayonlari va ko'rsatkichlari tahlili*.
4. O'zsanoatqurilishbank va Ipotekabank. (2021-2025). *Investorlar uchun taqdimot materiallari va moliyaviy hisobotlar: transformatsiya dasturlari, NPL va ROA ko'rsatkichlari dinamikasi*.
5. The Tashkent Times. (2025, 5-iyul). *Privatization of four banks postponed yet again*.
6. OTP Bank. (2022-2023). *Press-reliz va taqdimot: Ipotekabankni xususiylashtirish bitimi tafsilotlari, bankning moliyaviy holati va transformatsiya rejalari*.
7. Osiyo Taraqqiyot Banki. (2024, 27-iyun). *Xabarnoma: O'zsanoatqurilishbankka konvertatsiya qilinuvchi kredit ajratilishi va transformatsiya rejalari qo'llab-quvvatlash*.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100